

TURIZM VA YOSHLAR: TA'LIM, LIDERLIK VA AMALIY YONDASHUVLAR

Xumoyun Kosimov Ilxom o'g'li

TDIU 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Dilmurodov Farrux

TDIU professori,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turizm sohasida bugungi kunda yoshlarning o'rni va ahamiyati, shuningdek, ushbu sohada amaliy bilimlarning shakllanishi masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, yoshlarning jahon hamjamiyati bilan aloqalarini mustahkamlash, ularning xalqaro bilim va tajribalarni egallashida ham fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *yoshlar, turizm, xalqaro munosabatlar, ta'lim, iqtisodiyot*

Bugungi kunda davlat ijtimoiy tengligiga qaratilayotgan bu dastur, biz yoshlarga yaratilgan imkoniyat zaminlaridir. Ayniqsa, davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan “Biznesga birinchi qadam, Kelajak muhandislari, UzCombinator, Ko'mak, Voice Up” loyihalari yoshlar uchun imkoniyat yo'liga asos bo'la oldi. Shu o'rinda Yoshlar ishlar agentligi tizimi takomillashtirilib “Yangi O'zbekiston” yoshlarini birlashtirdi. Natijada har bir oilada yosh nihollar unib, ularga ijtimoiy yordam ko'rsatildi. Yangi orzular, yangi go'yalar shakllantirildi.

Ko'ksaroy qarorgohida Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan muloqoti bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi studiyalar orqali 60 mingdan ziyod yoshlar vakillari ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari yig'ilganlarni samimiy qutlab, yurtimizdagi 22 milliondan ziyod yoshlarimiz juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuch ekanini ta'kidladi. Barcha darajadagi rahbarlar yoshlarni til va kasb-hunarga o'rgatish, sportga jalb etish, g'oya, loyiha hamda startaplariga ko'mak berish, ularni ishli va daromadli qilish bo'yicha yanada faol ishlashi, birorta yigit-qizni e'tiborsiz qoldirmasligi zarurligi qayd etildi. Yillar davomida yaratilgan imkoniyatlar natijasida yoshlarimiz jahon fan olimpiadalarida 66 ta oltin, 147 ta kumush, 221 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Garvard, Yel, Prinston, Kolumbiya, Kornell kabi nufuzli oliygohlarda tahsil olayotgan talaba yoshlarimiz 500 nafardan, TOP-100 talikdagi oliygohlarda o'qiyotgan yigit-qizlarimiz 3,5 ming nafardan oshdi. Yoshlarimiz yaratgan 63 ta start-up loyihasi AQSh, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Birlashgan Arab Amirliklari bozorlariga kirib borgan. Yosh sportchilarimiz xalqaro arenalarda 720 ta oltin, 671 ta kumush, 854 ta bronza medalining sohibi bo'ldi. Bugun yosh tadbirkorlar yurtimizdagi biznes vakillarining 35 foizini tashkil etmoqda.

Shu ma'noda, O'zbekiston Yoshlar taraqqiyoti global indeksida eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan davlat deb e'tirof etilgani bejiz emas. Joriy yilda Toshkent shahrida Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati bosh qarorgohi tashkil etilishi, Samarqand shahrida Yoshlar parlamenti a'zolarining 12-global konferensiyasi, “Take Off” xalqaro startap sammiti va 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi o'tkazilishi bu maqomni yanada mustahkamlaydi.

Davlatimiz rahbari har yili 600 ming yosh mehnat bozoriga kirib kelayotgani, 2030-yilga borib, bu ko'rsatkich 1 millionga yetishini qayd etib, yoshlarga o'z imkoniyati va qiziqishiga mos ish topishi uchun sharoit yaratish eng muhim masala ekanini ko'rsatib o'tdi.

Yoshlar o'rtasidagi so'rovnoma natijasiga ko'ra, ularning uchdan biri tadbirkor bo'lish istagini bildirgan.

O'tgan yili yoshlar bandligini ta'minlash uchun banklar va Yoshlar ishlari agentligiga 400 million dollar yo'naltirilgani, “Yoshlar biznesi” va “Kelajakka qadam” dasturlari hisobidan 15 ming nafar yosh o'z tadbirkorligini yo'lga qo'yib, 50 ming kishini ish bilan ta'minlagani ta'kidlandi.

Bu ishlarning davomi sifatida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha 200 million dollar ajratilishi e'lon qilindi. Bunda moliyalashtirish imkoniyatlari kengaytiriladi: o'zini o'zi band qilgan yoshlar uchun kredit miqdori 100 million so'mdan 300 million so'mgacha oshiriladi. Yosh tadbirkorlarning loyihalari uchun 10 milliard so'mgacha kredit ajratish mumkin bo'ladi. Innovatsion startap loyihalariga 100 ming dollargacha investitsiya kiritishga ruxsat beriladi. Servis va umumiy ovqatlanish sohasida 1 mingdan ziyod ish o'rni yaratgan mahalliy brendlardan franshiza olib, filial ochishga qiziqqan yoshlar uchun qulay moliyalashtirish paketlari joriy qilinadi.

Joriy yildan “Kelajak tadbirkori” dasturi ishga tushirilib, yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatgacha 15 foizli kredit ajratish yo'lga qo'yiladi. Xususan, o'zini o'zi band qilgan yoshlarga garovsiz 20 million so'mgacha, tadbirkorlik ko'nikmasiga ega bo'lib biznes boshlayotganlarga 300 million so'mgacha, faoliyatini kengaytirmoqchi bo'lganlarga 2 milliard so'mgacha, kamida 5 nafar bitiruvchini ishga olgan tadbirkorlarga esa 10 milliard so'mgacha kredit berilishi belgilandi.

Shuningdek, tadbirkorlikni endi boshlayotgan yoshlarning 30 foizi biznes ko'nikmasi yetishmasligi sabab qiyinchilikka uchrayotgani qayd etildi. Shu bois, har bir hududda tadbirkorlikka o'qitish, g'oyani biznesga aylantirish, buxgalteriya, bank, marketing, ichki va tashqi bozorlarga chiqish bo'yicha kompleks xizmat ko'rsatadigan “Yoshlar biznes inkubatori” tashkil etiladi. Nufuzli xorijiy oliygohlar ilg'or tajribalar asosida yoshlarni tadbirkorlikka o'qitishda hamkorlik qilishga tayyor ekani qayd etilib, kamida 40 ming yoshni biznesga o'rgatadigan “Yangi avlod tadbirkorlari” dasturini boshlash belgilandi. Dasturni muvaffaqiyatli tugatgan eng yaxshi 1 ming nafar yoshning loyihasiga uch yil muddatga 200 million so'mgacha 7 foizli ssuda beriladi. Har yili “Yosh tadbirkorlar” tanlovi o'tkazilib, eng yaxshi 100 ta loyihani brendga aylantirish uchun “Yoshlar venchurs” jamg'armasidan 1 milliard so'mgacha mablag' ajratiladi.

1-martdan yangi ish boshlayotgan yosh tadbirkorlarga infratuzilmaga ulanish bilan bog‘liq davlat xizmatlarining xarajatlari Yoshlar tadbirkorligi jamg‘armasi hisobidan qoplab beriladi.

Ijtimoiy tashabbuslar bo‘yicha “Fikringni ber (Voice Up)” inklyuziv oromgohi tajribasi kengaytirilib, uni har bir hududda o‘tkazish va 1 ming nafar yoshni qamrab olish, eng yaxshi tashabbuslar ishtirokida Samarqand shahrida Xalqaro inklyuziv yoshlar oromgohini tashkil etish vazifasi belgilandi.

“O‘sish va rivojlanish (Upshift)” loyihasi doirasida bu yil media, dizayn, hunarmandchilik, ishlab chiqarish va innovatsiya yo‘nalishlarida ham tanlov o‘tkaziladi. Eng yaxshi 40 ta start-upni moliyalashtirish uchun 2 milliard so‘m ajratiladi.

Texnikumlarda ta‘lim dasturlarini ish beruvchilar talabi asosida yangilash, dual ta‘limning qamrovini kengaytirish, moddiy-texnik bazani yaxshilash bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Texnikumlarga ham oliygohlar kabi “spin-off” ochishga ruxsat berilib, o‘quvchilarning start-up loyihalariga 1 milliard so‘mgacha ajratiladi. Joriy yildan texnikum o‘quvchilari uchun ham “Ishla va sayohat qil (Work and travel)” dasturi asosida 6 oy xorijda ishlab, qo‘shimcha daromad topish imkoniyati yaratiladi, ishtirokchilarga yo‘lkira xarajatlari uchun ssuda ajratiladi.

Xorijiy til sertifikatiga ega yoshlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi samara bergani ta‘kidlanib, sertifikat olgan yoshlar 600 mingdan oshgani, xorijiy tillarni mukammal biladigan 72 ming instruktor shakllangani aytiladi. Xususi o‘quv markazlarining soni 3 karra ko‘payib, 38 mingdan oshgan.

Xususi o‘quv markazlari uyushmasini tashkil etish tashabbusi qo‘llab-quvvatlanib, uyushma a‘zosi bo‘lgan markazlarga binosini ijaraga bergan tadbirkorlar ijaradan olinadigan daromad va foyda solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi. Bunday markazlar o‘qituvchilarini ilg‘or ta‘lim markazlariga stajirovkaga yuborish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

“Ko‘mak” dasturi doirasida olis va chekka hududlarda xorijiy til o‘quv markazlarining faoliyatini kengaytirish uchun 300 million so‘mgacha foizsiz ssuda beriladi. Olis hududlardagi o‘quv markazlari ijtimoiy soliqni 1 foiz, o‘qituvchilar uchun daromad solig‘ini 7,5 foiz miqdorida to‘laydi (hozir 12 foiz). Joylarda ehtiyojmand oilalardagi yoshlarni bepul o‘qitadigan o‘quv markazlariga qo‘shimcha imtiyozlar berilishi belgilandi: yer va mol-mulk solig‘idan ozod qilinadi, kommunal xarajatlarning yarmi qoplab beriladi, o‘qituvchilarga to‘langan daromad solig‘i va ijtimoiy soliq “keshbek” tariqasida qaytariladi. Volontyorlik faoliyatiga alohida e‘tibor qaratildi. Yurtimizda huquqiy asoslar yaratilgani hisobiga volontyor yoshlar 5 karra ko‘payib, ekologiya, tibbiy xizmat, ta‘lim, favqulodda vaziyatlarda ko‘maklashish yo‘nalishlaridagi volontyorlar soni 100 mingdan oshgani aytiladi.

Volontyorlik harakatini rivojlantirish bo‘yicha Vasiylik kengashini tuzish, Yoshlar ishlari agentligida “Volontyorlikni qo‘llab-quvvatlash” jamg‘armasini tashkil etish rejalashtirildi. Jamg‘armaga har yili budjetdan 20 milliard so‘m, qo‘shimcha ravishda

mahalliy budjetlardan 3 milliard soʻmdan ajratiladi. Shuning hisobidan volontyorlik loyihalariga 100 million soʻmgacha grant beriladi, “ijtimoiy faollik kartasi” orqali ball tizimi joriy etiladi.

Shu oʻrinda taʼkidlab oʻtish joizki, ushbu ulkan loyihalarda turizm sohasi ham chetda qolgani yoʻq. “Yangi Oʻzbekiston” hududida ochilgan mehmoxonalar viloyat nomlariga berilib erkin iqtisodiy turizm sohasiga burilish boʻldi.

Prezident majmuada xizmat turlarini koʻpaytirish va sifatini oshirish, mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb etish masalalariga eʼtibor qaratgan. Bunday koʻp tarmoqli xizmatlarni boshqa hududlarda ham keng yoʻlga qoʻyish muhimligi taʼkidlangan.

Asosiy gʻoyaga eʼtibor beradigan boʻlsak, nafaqat turizm sohasi balki butun bir davlat tizimlarida kuchli kadrlar kerakligini har doim prezidentimiz tomonidan ilgʻor tashabbus bilan biz yoshlarga shijoat bermoqda. Mamlakatda turizm sohasining rivojlanishda yoshlar oʻrni muhimdir. Ularning tarixga boʻlgan qiziqishi hamda chet tillarini oʻrganishda amaliy tajriba yaratadigan loyiha nur ustiga nur boʻlishi ham oʻrinlidir. Tizim orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yoki chet tillarini oʻrganishda qiyinchiliklarga duch kelgan yoshlarni qamrab olishdir. Tizimning bosqichlari shundan iborat:

Tuman Yoshlar markazida saylangan yoshlar yetakchisi orqali markazda har oy chet tillari va tarix fanlaridan tanlovlar oʻtkaziladi. Tanlov uch bosqichli boʻladi. Viloyat tanlovlarida kuchli 10 talikni olgan iqtidorli oʻquvchilar, biriktirilgan „sayohat firmalarda” oʻz bilimlarini amaliyotda qoʻllash uchun toʻliq moliyalashtirilgan sayohat chiptalari tashkil qilinadi. Respublika bosqichida yuqori beshlikni olgan oʻquvchilar uchun ota-onasi bilan birgalikda, xorijiy safarlarga yoʻllanma beriladi. Oʻrgangan bilimlarini oʻquvchilar oʻrtasida guruh tuzilib kelgan turistlarga oʻz bilimlarini ulashgan holda mamlakatimiz tarixiy va madaniy maskanlarini tanishtirishadi va amaliy bilimlar bilan oʻz bilimlarini mustahkamlaydilar. Nega bu loyiha kerak? deganda yoshlarimiz oʻrtasida jamoa bilan ishlashni, oʻz fikrlarini chet tillarida bayon qila olish, haqiqiy chet ellik mehmonlari bilan birgalikda xatolar ustida toʻgʻirlash, jahonda boʻlayotgan taʼlim va kasb tizimida xalqaro doʻstlar ortirish, xalqaro bozorga kirib borish mamlakatimiz tarixini yoshlar bilan birgalikda dunyo olamiga tanitish, yoshlarga doimiy ichki kuch ulashish. Liderlik qobiliyatini shakllantirish asosiy oʻrinlarda turibdi. Turizm asoslari kitobida ham keltirib oʻtilgan. Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishni oʻzining asosiy maqsadi qilib belgilab oldi. Bu ishda turizm sohasi ham yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Turizm nafaqat oʻtmishni oʻrganish, oʻzga xalqlar va elatlar bilan tanishish, ularning madaniy yodgorliklaridan bahramand boʻlish, shuningdek, u katta biznes hamdir. Mazkur faoliyatni yoʻlga qoʻyish esa mutaxassislarga bogʻliq. Buning uchun malakali kadrlarni tayyorlash hozirgi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining «Xalqaro turizm» fakulteti va Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, qolaversa, qator Turizm kasb-hunar kollejlari bu ishga oʻz hissalarini qoʻshib kelmoqdalar. Bu oʻquv maskanlarida qator fanlar, jumladan, mutaxassislik fanlari ham boʻlib,

ularida kasb ilmiga taalluqli muammolar o‘z yechimini topadi. Shunday fanlar ichida «Turizm asoslari» o‘z nomiga yangi o‘quv fanlaridan biri bo‘lib, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining «Xalqaro turizm» fakultetida 2002-2003-o‘quv yildan mashg‘ulotlar olib borilmoqda.

X o‘sh, «Turizmni yoshlar bilan tanitamiz vazifalari nimalardan iborat? - degan haqli savol tug‘ilishi tabiiy. Masalaga oydinlik kiritish uchun ularni quyidagi tarzda belgilab oldik.

- turizmning asl mohiyatini ochib berish;
- turizmning taraqqiyot yo‘li, tajribasi, hozirgi kundagi muammolarini aniqlab olish;
- turizmning iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy va ijtimoiy ahamiyatini yoritib berish;
- sohaga oid tushuncha va atamalarni ta’riflash;
- O‘zbekiston va jahon turizm biznesining ildizlarini o‘rganishga asosiy e’tibor qaratildi;
- turizm va turist tushunchalarini ta’riflash, ularning ilk ko‘rinishlari, taraqqiyoti, shakllanishi haqida ilmiy va daliliy manbalar keltirish;
- O‘zbekiston Respublikasining turizm to‘g‘risidagi Davlat siyosati haqida (me’yoriy hujjatlar asosida) ma’lumotlar berish;
- jahon turizm tajribasi sinalgan ilg‘or namunalari bilan o‘rtoqlashish;
- turizm va turistning maqsadlarini aniqlab olish;
- turizmning tashkiliy tuzilishi va asosiy kategoriyalarini bilib olish;
- turistik industriya va unga bo‘lgan talablarni o‘rganish;
- turizm infratuzilmasi haqida ma’lumot olish; — turizm turlari va uning asosiy ko‘rinishlarini belgilab chiqish; — turistik resurslarni tushuntirib berish; — turistik tovarlar va mahsulotlar haqidagi tushunchalarni egallash; — turistik xizmatlar va servis darajasini takomillashtirish sirlarini ochib berish;

Mazkur fanni puxta egallash va kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lish uchun talabalar birinchi navbatda O‘zbekiston va jahon tarixi, geografiyasi, ularning tabiiy-iqlimiy resurslari, arxeologik va me’moriy yodgorliklari, muzey va madaniyat koshonolari, ayniqsa, iqtisodiyot fanlarining: marketing, menejment, servis, buxgalteriya, soliq, boj yo‘nalishlari haqida ma’lum tushunchalarga ega bolishlari lozim. Shuningdek, «Buyuk ipak yo‘li», savdogarlik tarixi, diniy bilimlar bo‘yicha ham yetarli fikr-mulohazalar talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa xorijiy tillarni o‘rganish va volontyorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar nafaqat ta’lim tizimining, balki turizm sohasining ham jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Yaratilayotgan imkoniyatlar, berilayotgan imtiyozlar va innovatsion yondashuvlar natijasida raqobatbardosh, bilimli va tashabbuskor yoshlar qatlaminin shakllanishi ta’minlanmoqda. Taklif etilgan loyiha esa aynan shu jarayonni amaliy bosqichga olib chiqib, yoshlarning nazariy bilimlarini real turizm muhitida mustahkamlash, ularning kommunikativ, liderlik va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu orqali nafaqat yoshlarning shaxsiy rivoji, balki O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosini jahon

miqyosida targ‘ib etish, turizm salohiyatini yanada oshirish va mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo‘shish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turizm asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2003.
2. Turizm iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2010.
3. Yoshlar ishlari agentligi rasmiy ma’lumotlari (yoshlar siyosatiga oid hisobotlar).
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy statistik to‘plamlari.
5. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari.
6. World Tourism Organization (UNWTO). Tourism Highlights hisobotlari.
7. Marketing asoslari. – Prentice Hall.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar va turizmga oid farmon va qarorlari (2020–2024)